

Xayriddin Saloh (1934-1969)



## Xayriddin Saloh (1934-1969)



Xayriddin Saloh (Salohiddinov Xayriddin) (1934.15.1 — Toshkent — 1969.5.6) — shoir. Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan (1957).

«O'zbekiston madaniyati» (1963—66) gazetasi va «Gulxan» jurnalida (1968—69) adabiy xodim bo'lib ishlagan.

«Chashma» (1959), «Ikkinchi imtihon» (1961), «Ishqim va rashkim» (1965), «Tug'yon», «Na'matak» (1969), «Izlar va hislar» (1974), «Shu'lalar qo'shig'i» (1975), «Lirika» (1985) she'riy kitoblari va «Laylo», shoir Sultan Jo'ra haqidagi «Yangroq hayot» (1969), Toshkent zilzilasi bag'ishlangan «Toshkent bilan suhbat» (1966) kabi dostonlar muallifi. Vafotidan so'ng esa, «Izlar va hislar» (1974), «Lirika» (1985) kabi she'r va dostonlardan tarkib topgan kitoblari bosilgan.

U. G. Geyne, Bayron, M. Lermontov, T. Shevchenko, R. Hamzatov va b.ning ayrim asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

2023-09-11 21:13:17